



## **MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA EKOLOGIK ONGNI RIVOJLANTIRISH**

***Ro‘zmetova Muslima Ollayor qizi***

*Urganch davlat pedagogika instituti o‘qituvchi-stajori*

*[ruzmetovamuslima@gmail.com](mailto:ruzmetovamuslima@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik ongi rivojlanirish, zamonaviy ta’lim tizimining ajralmas qismidir. Shuningdek bolalar yoshida ekologik bilimlarni shakllantirishning ahamiyati, usullari va metodlari muhokama qilinadi. Ekologik ongi shakllantirishning dastlabki bosqichlari bolalarda atrof-muhitga, tabiatga va ekologik muammolarga nisbatan sezgirlikni oshirishga qaratilgan.

**Kalit so‘zlar:** ekologik ong, maktabgacha ta’lim, tabiatni sevish, ekologik ta’lim, bolalarda ekologik bilish, ekologik tarbiya, amaliy mashg‘ulotlar

**Kirish:** Bugungi kunda ekologik ta’limning ahamiyati ortib bormoqda, ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun. Ekologik ong, insonlarning atrof-muhitga bo‘lgan munosabati, tabiatni asrashga bo‘lgan ma’suliyatni anglatadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar, o‘zlarining ilk ekologik bilimlarini o‘rganishda va atrof-muhitga nisbatan to‘g‘ri munosabatni shakllantirishda juda katta imkoniyatlarga ega. Bu jarayon orqali bolalarda tabiatga nisbatan mehr va ehtiyojkorlikni rivojlanirish, ekologik ta’limni yoshdan boshlab singdirish muhimdir. O‘zbekiston Prezidenti **Shavkat Mirziyoyev** ekologik ta’lim va tabiatni asrashning ahamiyati haqida bir necha bor so‘zlagan. O‘z chiqishlarida, ekologik ongi maktabgacha yoshdan shakllantirish, bolalarni atrof-muhitni



sevishga o‘rgatish, barqaror rivojlanish tamoyillarini amalda qo‘llash zarurligini ta’kidladi. Ekologik ong tushunchasi va uning bolalarda shakllanishi: Ekologik ong, insonning atrof-muhit va tabiiy resurslarga bo‘lgan munosabati va ularni saqlashga bo‘lgan mas’uliyatini anglatadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik ongni rivojlantirish - ularni tabiiy muhitga, o‘simliklar va hayvonot dunyosiga mehr va ehtiyyotkorlik bilan yondashishga o‘rgatishni anglatadi. Ekologik ongni shakllantirishning ahamiyati: ekologik ongni shakllantirish bu faqat tabiatni sevishdan iborat emas, balki ekologik muammolarni hal qilishda ham yuksak mas’uliyatni anglashdir. Bolalar yoshida atrof-muhitga bo‘lgan munosabatni shakllantirish, ularga tabiatning muhimligini, resurslarni tejashni, chiqindilarni kamaytirishni va ekologik ziddiyatlardan saqlanishni o‘rgatishni talab qiladi. **Maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik ta’lim metodlarini ham o'rni kattadir.** **Masalan o'yinlar va amaliy mashg'ulotlar:** maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ekologik ta’lim ko‘pincha o‘yin va amaliy faoliyatlar orqali o‘rgatiladi. Bu yoshdagi bolalar uchun ekologik tushunchalar ko‘proq vizual va interaktiv bo‘lishi kerak. Misol uchun, bolalar bog‘larida o‘simliklar ekish, hayvonlar va o‘simliklar bilan tanishtirish, chiqindilarni to‘g‘ri ajratish bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘rgatiladi. **Tabiatga sayohatlar:** bolalarni tabiat bilan tanishtirish uchun sayohatlar o‘tkazish, ularni hayvonlar va o‘simliklar bilan yaqindan tanishtirish, ekologik muammolar haqida suhabatlar tashkil etish ekologik ongni rivojlantirishda samarali metodlardir. Ijtimoiy loyiha va tadbirlar: maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ekologik mavzularda anjumonlar, ko‘rgazmalar va chiqishlar tashkil etish bolalarning ekologik ongini rivojlantirishga yordam beradi. Ko‘rgazmalar va vizual materiallar: o‘quv materiallari va ko‘rgazmalar yordamida ekologik tushunchalar bolalar uchun osonroq tushuniladi. Tabiatga oid rasmlar, diagrammalar va boshqa materiallar



bolalarga atrof-muhitning ahamiyatini ko'rsatish uchun samarali vosita bo'lishi mumkin. Ekologik ongi rivojlantirishda ota-onalar va jamiyatning roli: ekologik ta'limda ta'lim muassasalarining roli juda katta bo'lsa-da, ota-onalar ham muhim ahamiyatga ega. Ota-onalar bolalarga ekologik qadriyatlarni oilaviy muhitda singdirishlari kerak. Shuningdek, jamiyat ekologik ta'limni targ'ib qilishda birlashib, bolalarni ekologik muammolarga ehtiyyotkorlik bilan yondashishga o'rgatishi lozim.

Xulosa: Maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik ongi rivojlantirish, ular uchun barqaror rivojlanishning asoslarini yaratadi. Bu jarayon ularning kelajakda tabiatni asrash va resurslardan oqilona foydalanish bo'yicha ma'suliyatini oshiradi. Ekologik ta'lim nafaqat bolalar, balki butun jamiyat uchun katta ahamiyatga ega. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik ongi rivojlantirish - bu ularga tabiatni sevish va uni asrashning ahamiyatini tushuntirishning boshlang'ich bosqichidir. Ekologik ta'limning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi kelajakda ekologik muammolarga qarshi kurashishda va barqaror rivojlanish yo'lida muhim qadam bo'ladi. Bu jarayonni amalga oshirishda o'qituvchilar, ota-onalar va jamiyatning barcha qatlamlari faol ishtirok etishi kerak. Ekologik ongi shakllantirish uchun zamonaviy ta'lim metodlarini joriy etish va tabiat bilan bevosita muloqot qilish zarur.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. M. S. Abdurahmonov- "Ekologik ta'lim va tarbiya" "Pedagogika" 2017.y
- 2.X. M. Shodiev -"Maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik ongi rivojlantirish" —“O'zbekiston” 2019.y



**Ilm fan taraqqiyotida raqamli iqtisodiyot va  
zamonaviy ta'limning o'rni hamda rivojlanish omillari**



- 3.B. X. Qodirov "Tabiatni saqlash va ekologik ongni rivojlantirish" —  
"O'zbekiston" 2020.y
- 4.D. A. Ibragimov "Ekologik ongni shakllantirishda maktabgacha ta'limning  
ro'li" — "Fan va ta'lim" 2020.y
5. D. Shamsutdinov. "Ekologik ta'lim va uning metodlari" Tashkent: Ijtimoiy  
fanlar akademiyasi. 2018.y